

## **"NEGA ESKI MODA YANA QAYTALANYAPTI? ODAMLAR YANGILIKDAN ZERIKDIMI YOKI MODA ORTIDAN QUVISH CHARCHATDIMI?"**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15679143>

**Abdiyeva Sabrina Sheraliyevna**

[sabrinaabdiyeva0709@gmail.com](mailto:sabrinaabdiyeva0709@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada qaytalanayotgan moda haqida so'z yuritiladi.

### **Kalit so'zlar**

neon ranglar, minimalistika, mom jeans ,aksessuar, nostalgiya, ekologik moda.

Deyarli har bir davrning o'ziga xos liboslari, o'ziga xos kayfiyati bo'lgan. 1960-yillardagi A-line ko'yaklar, 1970-yillardagi keng paxtalik shimlar, 1980-yillardagi neon ranglar va hajmli yelkali liboslarni bunga misol qilishimiz mumkin.Ular qandaydir "o'tmishda qolgan" deb o'ylangani bilan, bugun yana ko'chalarda, podiumlarda, hatto TikTokdagi trendlarda tirilib chiqmoqda. Nega? Axir moda doim yangi izlanish, ijodiy parvoz degan tushunchalar bilan bog'lanmasmidi?

Bilamizki, Modaning aylanishi borasida bir haqiqat bor: tarix takrorlanadi – moda ham shunday. Masalan, 2000-yillar boshida zamonaviy ko'yaklar o'rnini sportcha, minimalistik uslub egallagan edi. Ammo 2010-yillarning o'rtalariga kelib, ko'pchilik bir vaqtlar "modadan qolgan" deb hisoblagan 1990-yillardagi mom jeans, ko'yak ichidan kiyiladigan futbolkalar, ko'zga tashlanadigan zanjirli aksessuarlar yana trendga aylana boshladi.

Ko'plar o'laydi: "Eski moda – bu shunchaki nostalgiya, bolalikni eslash". Bu fikr haqiqatga yaqin, ammo bugungi yoshlar 2000-yillarda tug'ilgan avlod 1990-yillarning yoki hatto 1980-yillarning modasini shaxsiy xotira sifatida emas, balki retro uslub sifatida qabul qilishmoqda. Shu bois 2020-yil atrofida "Y2K fashion" (2000-yillar modasi) TikTok va Instagram orqali ommalashdi. Past beli jinsilar, porloq matolar, futuristik ko'zoynaklar – bular barchasi 20 yil oldingi modaning yangicha talqini edi.

Va yaqin 2023-yilda 70-yillar modasi qaytganligi ham fakt deb ayta olamiz. 2023-yilda ko'plab yirik brendlar, xususan Gucci, Dior, va Celine o'z kolleksiyalarida 1970-yillardagi keng tikilgan kostyumlar, yumshoq rang palitralari va tabiiy materiallarga asoslangan liboslarni taqdim qilishdi. Bu modaning nafaqat tashqi ko'rinishini, balki yorqin kayfiyatini ham qaytardi deya olamiz.

Yangi moda doimiy ravishda yangilik istaydi. Har mavsumda ranglar o'zgaradi, shakllar o'zgaradi, me'yorlar o'zgaradi. Har bir yangilik esa — vaqt, pul, kuch degani. Odamlar bunday ritmdan charchadi. Shu bois ular "tanish va qulay" modaga — eski modaga qaytmoqda. Bu nafaqat chiroyli qaror, balki psixologik ehtiyoj ham. Chunki eski moda — bu xavfsizlik hissi, oddiylik va ishonchni beradi. Odamlar shunchaki chiroyli ko'rinishni emas, ichki tinchlikni ham izlayotganga o'xshaydi.

Bir qarashda Modaning takrorlanishi — u o'tmish bilan suhbat qurishga o'xshaydi. Masalan, hozir 1980-yillardagi ayollarning erkaklarcha ko'rinishga ega kostyumlari qaytmoqda. Yoki 1990-yillardagi minimalizm bugun ekologik moda (sustainable fashion) bilan uyg'unlashgan. Bu degani, moda shunchaki qaytmayapti — u qayta talqin qilinyapti.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, eski moda qaytmoqda — bu fakt. Ammo bu jarayon shunchaki "eski narsa yana urf bo'ldi" degan ma'nodan yiroq. Bu — odamlarning ichki holati, jamiyatdagi o'zgarishlar, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning modadagi aksidir. Odamlar yangilikdan emas, sun'iylikdan charchadi. Moda esa bizni o'tmish bilan, o'zimiz bilan bog'laydigan ko'prik bo'lib qoldi.

### **MAQOLADAGI OCHIQ MANBAALAR RO'YXATI:**

#### **1. 1990-yillar modasi 2010-yillarda yana urf bo'ldi**

Fakt: "Mom jeans", katta kurtkalar, chokers va boshqa 90-yillar uslubi 2010-yillar oxiridan yana trendga kirdi.

Manba:

Vogue (2015): "The Return of the Mom Jean"

→ <https://www.vogue.com/article/mom-jeans-are-back>

The Guardian (2015): "The 90s fashion revival: from chokers to crop tops"

→ <https://www.theguardian.com/fashion/2015/aug/21/90s-fashion-revival-chokers-crop-tops>

#### **2. Y2K modasi TikTok orqali 2020–2022 yillarda qaytdi**

Fakt: Past beli jinsilar, porloq matolar, metallik sumkalar va boshqalar yana urf bo'ldi.

Manba:

Vogue Business (2021): "Gen Z brings back Y2K fashion"

→ <https://www.voguebusiness.com/fashion/gen-z-brings-back-y2k-style>

TikTok Trend Report (2021):

→ <https://newsroom.tiktok.com/en-us/tiktoks-year-on-trend-2021>

#### **3. 2023-yilda 1970-yillar modasi qaytdi**

Fakt: Gucci, Dior va Celine 70-yillar uslubini 2023 kolleksiyalarida taklif qildi.

Manba:

Business of Fashion (2023): "How the 70s are Shaping Fall Fashion Again"

→ <https://www.businessoffashion.com/articles/news-analysis/70s-style-fashion-trend-2023/>

WWD - Women's Wear Daily (2023): "Gucci Fall 2023 RTW Collection"

→ <https://wwd.com/runway/fall-ready-to-wear-2023/milan/gucci/review/>

4. Fashion Cycle nazariyasi: moda 20-30 yilda qaytariladi

Fakt: Moda davriy takrorlanadi, bu nazariyani birinchi bo'lib James Laver ilgari surgan.

Manba:

Laver, James. Taste and Fashion: From the French Revolution to the Present Day. (1937, reprinted 2002)

Qo'shimcha manba:

→ <https://fashion-history.lovetoknow.com/fashion-history-eras/fashion-cycle>

5. Ekologik moda va "slow fashion" 1990-yillar minimalizmi bilan bog'liq

Fakt: Bugungi ekologik yondashuv o'z ildizlarini 1990-yillardagi oddiylik g'oyasidan olgan.

Manba:

Fletcher, Kate. Sustainable Fashion and Textiles: Design Journeys (Earthscan, 2008)

Oxford University Press: Fashion and Sustainability (2020)

→ <https://academic.oup.com/book/34527>